



DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATI FAOLIYATIGA ICHKI AUDIT  
XIZMATLARINING TA'SIRI

**Temirov Muxammadali Xamidovich -**  
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti  
Menejment va marketing kafedrası dotsenti, PhD

[https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss5/a14](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/a14)

**Annotatsiya.** Taqdim etilgan maqolada zamonaviy sharoitda ichki audit xizmatlarini tashkil etishning muhim jihatlariga to'xtalib o'tiladi. Unda budjet mablag'laridan samarali foydalanish va budjet xarajatlari samaradorligini ta'minlashda nazorat organlarining roli va faoliyat mexanizmiga e'tibor qaratilgan. Budjet mablag'larini oluvchilarda ichki audit xizmatini joriy etish natijasida davlat dasturlari va loyihalarini yanada samarali amalga oshirishni ta'minlash mumkin bo'ladi. Demak, ichki nazorat va auditni kuchaytirish orqali tashkilotlar budjet mablag'larini yanada samaraliroq boshqarishi, ulardan to'g'ri foydalanishni nazorat qilishi va rejalashtirilgan natijalarga erishishi imkoni paydo bo'ladi. Olib borilgan tadqiqotning ahamiyati shundaki, u budjet mablag'lari harakatining barcha bosqichlarida nazorat organlari faoliyatini takomillashtirishga yordam beradi va budjet mablag'larini boshqaruvchi tashkilotlarga yuklangan ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarning yanada samarali bajarilishini ta'minlaydi.

**Kalit so'zlar:** ichki moliyaviy audit, ichki nazorat, davlat xarajatlari, natijaviylik, unumdorlik, samaradorlik, tejamkorlik, davlat moliyaviy nazorati.

ВЛИЯНИЕ УСЛУГ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ  
ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ

**Темиров Мухаммадали Хамидович -**  
PhD, доцент кафедры Менеджмент и маркетинг  
Ташкентского Международного университета Кимё

**Аннотация.** Представленная статья посвящена важным аспектам организации службы внутреннего аудита в современных условиях. Основное внимание уделяется роли и механизму деятельности контрольных органов в обеспечении эффективного использования бюджетных средств и результативности бюджетных расходов. В результате внедрения службы внутреннего аудита у получателей бюджетных средств можно будет обеспечить более эффективную реализацию государственных программ и проектов. Таким образом, за счет усиления внутреннего контроля и аудита организации смогут более эффективно управлять бюджетными средствами, контролировать их правильное использование и достигать запланированных результатов. Значимость исследования заключается в том, что оно способствует совершенствованию деятельности органов контроля на всех этапах движения бюджетных средств и обеспечит более эффективное выполнение социально-экономических функций, возложенных на организации, управляющие бюджетными средствами.

**Ключевые слова:** внутренний финансовый аудит, внутренний контроль, государственные расходы, результативность, продуктивность, эффективность, экономность, государственный финансовый контроль.

IMPACT OF INTERNAL AUDIT SERVICES ON THE ACTIVITY OF  
THE STATE FINANCIAL CONTROL

**Temirov Mukhammadali Khamidovich -**  
PhD, Associate professor Management and marketing Department  
Kimyo international university in Tashkent

**Abstract.** The presented article is devoted to important aspects of the organization of the internal audit service in modern conditions. The main attention is paid to the role and mechanism of activity of control bodies in ensuring the effective use of budgetary funds and the effectiveness of budgetary expenditures. As a result of the introduction of the internal audit service, the recipients of budgetary funds will be able to ensure more efficient implementation of state programs and projects. Thus, by strengthening internal control and audit, organizations will be able to manage budget funds more effectively, control their correct use and achieve planned results. The significance of the study lies in the fact that it contributes to the improvement of the activities of control bodies at all stages of the movement of budget funds and will ensure more efficient performance of the socio-economic functions assigned to organizations managing budget funds.

**Key words:** internal financial audit, internal control, public spending, effectiveness, productivity, efficiency, economy, public financial control.

**Kirish.** Davlat boshqaruvi va mamlakat iqtisodiy tuzilmasidagi o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatishning asosiy mexanizmlaridan biri moliyaviy mexanizm bo'lib, uning asosiy qismini budjet tashkil etadi. Davlat tomonidan budjet mablag'larini, shuningdek,

boshqa moliyaviy va moddiy resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish, umuman, uning faoliyatining samaradorligi va natijaviyligini belgilaydi (Suvankulov, 2023).

Mamlakat iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida iqtisodiyotning davlat sektoridagi huquqbuzarliklar, budjet mablag'larini suiiste'mol qilish, firibgarlik natijasida moliyaviy va moddiy yo'qotishlar muammosining yuzaga kelishi barchani birdek tashvishga solishi tayin. Shu nuqtayi nazardan, ichki nazorat tizimini tashkil etish hamda moliyaviy nazoratni kuchaytirish doirasida moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirish, davlat mablag'larini samarasiz va noto'g'ri ishlatish xavfini kamaytirishning ahamiyati dolzarb bo'lib qolmoqda va davlat uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda.

Mulkchilik shaklidan, bo'ysunishidan va moliyalashtirish manbalaridan qat'iy nazar xo'jalik yurituvchi subyektlar tarkibida ichki nazorat tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, ichki nazorat xavflarning oldini olishning muhim shartlaridan biri bo'lib, yaxshi tuzilgan ichki nazorat tizimi xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining salbiy oqibatlarini minimallashtirishga imkon beradi. Agar ichki nazorat haqida davlat boshqaruvi nuqtayi nazaridan so'z yuritadigan bo'lsak, shuni ta'kidlash mumkinki, davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligining zarur sharti ham nazorat funksiyasini sifatli amalga oshirish hisoblanadi (Al-Saduni, 2023).

**Adabiyotlar sharhi.** Davlat moliyasini samarali boshqarish har qanday davlatning ustuvor vazifasidir. Budjet tizimi orqali jami ijtimoiy mahsulot davlat faoliyatining eng muhim sohalariga, jamiyat uchun muhim bo'lgan mahsulotlarini ishlab chiqarishga va jamiyatning uyg'un rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishga qayta taqsimlanadi (Kutyrev, 2017).

Davlatning moliyaviy faoliyati davlat moliyaviy nazorati bilan uzviy bog'liq. Davlat nazorati funksiyasini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari budjet nazorati va auditi bo'lib, ular mablag'larni shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bosqichlarini nazorat qilish imkonini beradi, shuningdek, budjet qonunchiligi buzilishining oldini olish va bartaraf etishga yordam beradi (Kojushko, 2022).

Ichki audit xizmati va davlat moliyaviy nazorati o'zaro bog'liq bo'lib, davlat organlarida moliyaviy shaffoflik va qonun ustuvorligini ta'minlash hamda davlat organlarida resurslarni samarali boshqarish, davlat oldida turgan maqsad va vazifalarini amalga oshirishga hissa qo'shish uchun hamkorlikda ish olib boradi va bir-birini to'ldiradi. Ular davlat sektorida nazorat va boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismlarini ifodalaydi.

Tyurina va Bratkonning (2023) ta'kidlashicha, ichki auditning maqsadi muassasa xodimlari tomonidan budjet tartib-qoidalarini tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar bajarilishining ishonchligi, buxgalteriya hisobi metodologiyasi va

budjet hisobotini tuzishning belgilangan talablarga muvofiqligini baholash va moliyaviy boshqaruvni tashkil etishdan iborat.

Mualliflarning fikricha, ichki audit jarayonida bir qator budjet tartib-qoidalarining bajarilishi baholanadi, jumladan:

- budjet loyihasini tayyorlash va taqdim etish hamda budjet daromadlari va xarajatlarining kassa rejasini yuritish;
- davlat organining budjet smetasini tuzish, tasdiqlash, yuritish va ijro etish;
- ortiqcha to'langan to'lovlarni budjetga qaytarish to'g'risida qarorlar qabul qilish, to'lovlarni aniqlashtirish;
- budjet hisobini yuritish;
- budjet hisobotini tayyorlash, taqdim etish va hokazo.

Ichki audit xizmatining vakolatlari orasida bir nechtasini ajratib ko'rsatish mumkin, jumladan: boshqaruv xodimlari va rahbariyatga maslahatlar berish, buxgalteriya hisobi va hisobotini baholash, turli xil suiiste'mollardan himoya qilish va shu kabilar (Ivannikova, 2021).

Kolesnik (2018) ichki audit bo'linmalarining tashkiliy mustaqilligini oshirish, ichki auditorlarni korrupsiya xavfi yuz berishi natijasida davlat mulkidan aktivlarni olib qo'yish ehtimolini minimallashtirishga qaratilgan zarur uslubiy vositalar bilan ta'minlash orqali mas'ullarning nohaq xatti-harakatlarini minimallashtirish mumkinligini ta'kidlaydi.

Ayrim olimlar ichki audit xizmati faoliyatidagi qiyinchiliklarni kadrlar yetishmovchiligi bilan bog'laydi. Ularning fikricha, rahbariyat ichki audit xizmati ehtiyojlariga yetarlicha e'tibor qaratmaydi, buning natijasida faoliyat sifati nazorati to'liq amalga oshirilmaydi (Fan, 2020).

Yuqorida keltirilgan yondashuvlarni umumlashtirgan holda, davlat organlarida ichki audit xizmatlarini tashkillashtirish, davlat moliyasini boshqarishda shaffoflik, samaradorlik va o'rnatilgan talablarga rioya etilishini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ichki audit xizmatlari boshqaruv organlariga asoslangan qarorlar qabul qilishda hamda moliyaviy xato va kamchiliklarning oldini olishda yordam beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy tadqiqotning nazariy va metodologik asosini iqtisod fanining fundamental tamoyillari tashkil etadi, tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, tahlil, tizimli yondashuv kabi umumiy ilmiy usullar qo'llanilgan.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Davlat moliyaviy nazoratini samarali amalga oshirish orqali budjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash iqtisodiyotning muhim ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda yakuniy natijalarga erishishga qaratilgan budjetdan moliyalashtirishning yangi tamoyillariga mos kelish maqsadida davlat moliyaviy nazorati shakl va usullarida

o'zgarishlarga duch kelmoqda. Ushbu transformatsiya mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, iqtisodiy siyosatning muhim maqsadi hisoblanadi. Davlatning roli, uning iqtisodiyotdagi ishtiroki, xarakteri va budget mablag'larining ahamiyati turli vaziyatlarda har xil ekanligini hisobga olsak, moliyaviy nazoratning vazifalari, shakllari va usullari ham tubdan farq qiladi.

Moliyaviy nazoratning mohiyatini aniqlash bahs va munozarali mavzu bo'lib qolmoqda. Turli olimlar ushbu konsepsiyaga nisbatan o'z talqinlarini taklif qilmoqdalar. Ba'zi mualliflar moliyaviy nazoratni funktsiya sifatida ko'rishsa (Fadeykina, Voronova, 2002), boshqalari uni muayyan faoliyat yoki harakat deb hisoblashadi (Rodionova, Shleynikov, 2002).

Moliyaviy nazoratning mohiyatiga qarashlarning bunday xilma-xilligini uni o'rganish va qo'llashga yondashuvlardagi farqlar bilan izohlash mumkin. Biroq, umuman olganda, moliyaviy nazorat turli tashkilotlar va davlatlarda moliyaviy intizomni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va moliyaviy barqarorlikni saqlashning muhim vositasi bo'lib qolmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, nazorat boshqaruv tizimining ajralmas qismidir. Xuddi shu tarzda, moliyaviy nazoratni moliyaviy menejment funktsionalligining bir qismi deb hisoblash mumkin. Shu nuqtayi

nazardan, moliyaviy nazorat tizimi moliyaviy boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u ushbu tizimni qurishning ajralmas tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi, masalan:

- moliyaviy nazorat subyekti;
- moliyaviy nazorat obyekti;
- moliyaviy nazorat usullari;
- moliyaviy nazoratning maqsadi.

Agar moliyaviy nazorat tizimining bir elementi yetishmayotgan bo'lsa, bu butun tizimning yaxlit va to'liq emasligini anglatishi mumkin, bu holat uning samaradorligi va barqarorligiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Moliya tizimining har bir elementi muayyan rol va funktsiyaga ega bo'lib, ularning o'zaro ta'siri butun tizimning to'g'ri ishlashiga yordam beradi. Shunday qilib, to'liq moliyaviy nazorat tizimi, odatda, samarali boshqaruv va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun yuqoridagi barcha elementlarni o'z ichiga oladi.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy nazorat moliyaviy boshqaruv funktsiyasi bo'lib, u o'z ichiga qayta aloqa tizimini tashkil etishni ham oladi. Bu tizim turli usullar va vositalardan foydalangan holda moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida moliyaviy nazorat obyektidan moliyaviy nazorat subyektiga ma'lumotlarni uzatadi. Moliyaviy nazoratning turli tasniflarini ajratish mumkin (1-rasm):

<b>subyekt bo'yicha</b>	• davlat, idoraviy, xo'jalik ichidagi, jamoat, mustaqil
<b>vaqt bo'yicha</b>	• dastlabki, joriy, navbatdagi
<b>dalillarni olish usuliga ko'ra</b>	• hujjatli va haqiqatda
<b>usullari bo'yicha</b>	• tekshiruv, tadqiq etish, boshqaruv nazorati, moliyaviy holat tahlili, kuzatuv, taftish
<b>subyekt va obyekt o'rtasidagi munosabatlarning tabiati bo'yicha</b>	• tashqi va ichki moliyaviy nazorat
<b>amalg oshirish qoidalariga muvofiq</b>	• majburiy va tashabbusli
<b>bo'ysunish bo'yicha</b>	• gorizontal va vertikal

**1-rasm. Moliyaviy nazoratning tasnifi**

Moliyaviy boshqaruv nuqtayi nazaridan turli xil nazorat turlari o'rtasidagi munosabatlarni tushunish juda muhimdir. Ushbu tushuncha tashkilot yoki hukumatga moliyaviy barqarorlik va intizomni ta'minlash uchun yanada samarali va izchil nazorat mexanizmlarini yaratishga imkon beradi. Budget nazorati, audit, ichki nazorat va shu kabilar nazoratning turli turlari o'ziga xos funktsiyalarni bajaradi, ammo ularning o'zaro ta'siri moliyaviy resurslarni yanada to'liq

va ishonchli nazorat qilish va boshqarish imkonini beradi.

Ichki moliyaviy nazorat to'g'ri moliyaviy boshqaruvni ta'minlash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklar va xatolarning oldini olish uchun tashkilotda o'rnatilgan chora-tadbirlar va tartiblar tizimini aks ettiradi. Ushbu turdagi nazorat tashkilotning ichki xodimlariga va rahbariyatiga qaratilgan bo'lib, ularga moliyaviy operatsiyalar va jara-

yonlarni kuzatishga, shuningdek, ichki standartlar va siyosatlariga rioya qilishga yordam beradi.

Tashqi moliyaviy nazorat, aksincha, davlat organlari tomonidan tekshirish va nazorat qilishdir. Ushbu turdagi nazorat tashkilotning moliyaviy hisoboti va faoliyatining shaffofligi, aniqligi va belgilangan standartlar va qonun hujjatlariga muvofiqligini baholashga qaratilgan.

Moliyaviy nazoratni muayyan tur sifatida tasniflashda muammolar mavjud. Odatda, tashqi moliyaviy nazorat subyekti nazorat qiluvchidan tashqarida, ichki moliyaviy nazorat subyekti esa tegishli ravishda tashkilot ichida joylashgan, deb taxmin qilinadi (Romanovskiy va Vrublevskiy, 2001).

Ichki va tashqi moliyaviy nazoratni tasniflash bo'yicha turli nuqtayi nazarlar ushbu muammoni qo'shimcha o'rganishni talab qiladi. Bizning fikrimizcha, nazorat faoliyati natijalarini yakuniy oluvchisiga qarab tasniflash va uni moliyaviy nazoratning benefitsiari sifatida belgilash mumkin.

Moliyaviy nazoratning benefitsiari moliyaviy nazoratning yakuniy subyekti bo'lib, u nazorat tartib-qoidalari natijalaridan manfaatdor hisoblanadi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ulardan foydalanadi.

Agar nazorat faoliyati natijalari to'g'risidagi ma'lumotni yakuniy oluvchisi yoki moliyaviy nazoratning benefitsiari tashkilot yoki muassasa rahbari bo'lsa, bu nazorat-taftish bo'limining joylashuvidan (tashkilot ichida yoki outsorsing yoxud kosorsing shartnomasi bo'yicha) qat'i nazar ichki moliyaviy nazoratdir.

O'ziga xos xususiyatlarga ko'ra, davlat organlarida ichki moliyaviy nazorat natijalari ixtisoslashtirilgan tuzilma tomonidan o'rganish obyektiga aylanadi, u mazkur nazorat ishtirokchisini organ rahbaridan tuzilmaning o'ziga o'tkazadi. Shu nuqtayi nazardan, idoraviy davlat moliyaviy nazorati davlat moliyaviy nazoratining alohida turi bo'lib, bunda moliyaviy nazoratning benefitsiarlari bir vaqtning o'zida ham idora, ham davlat organining rahbari hisoblanadi.

Ichki moliyaviy nazorat shunday moliyaviy nazorat turiki, unda teskari aloqa tizimini tashkil etish orqali turli xil usullardan foydalangan holda tashkilotning moliyaviy boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun nazorat obyektidan nazoratni amalga oshiruvchi tashkilot rahbariga ma'lumotlar taqdim etiladi.

Ichki moliyaviy nazorat qonunbuzarliklar va xatolarni o'z vaqtida aniqlash va ularni tezda bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, bu, o'z navbatida, faoliyat samaradorligi va natijaviyligini oshirishga yordam beradi. Moliya va budjet sohasida milliy budjet qonunchiligiga, shu jumladan, budjet tizimi tamoyillariga rioya etilishini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar ichki moliyaviy nazorat obyektlari hisoblanadi. Ichki moliyaviy nazorat paytida hisobot materiallari maj-

burii ravishda tekshiriladi, shuningdek, nazorat faoliyati natijalari bo'yicha hisobotlar tuziladi va "hisobotning asosiy maqsadi shaffoflikni ta'minlash, kalendar yili uchun nazorat tadbirlari rejasining to'liqligi va o'z vaqtida bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish, nazorat tadbirlari samaradorligini ta'minlash va nazorat faoliyati natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilishdan iborat" (Kucherov va boshqalar, 2016).

Ammo shuni ta'kidlash joizki, davlat organlari ham ichki moliyaviy nazoratni amalga oshiradi, hatto davlat moliyaviy nazorati organlarining o'zi ham ichki moliyaviy nazoratni amalga oshiradi, bu esa davlat moliyaviy nazoratining sifat darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

Albatta, davlat moliyaviy nazorati, idoraviy moliyaviy nazorat va ichki moliyaviy nazoratning mohiyatini alohida o'rganish muhim, ammo moliyaviy nazorat tizimi doirasida ularning o'zaro munosabati va o'zaro ta'sirini tushunish ham birdek muhim.

Davlat moliyaviy nazorati davlat sektorida moliyaviy operatsiyalar va boshqaruv qarorlarini nazorat qilish va kuzatishning umumiy mexanizmidir. Bu mexanizm ichki moliyaviy nazoratni ham, idoraviy moliyaviy nazoratni ham o'z ichiga oladi.

Ushbu turdagi nazorat o'zaro bog'liq va moliyaviy nazorat tizimida quyidagicha o'zaro ta'sir qiladi:

– ichki moliyaviy nazorat davlat moliyaviy nazoratining bir qismi bo'lib, davlat tashkilotlari doirasida amalga oshiriladi. Uning natijalari umumlashtirish va tahlil qilish uchun davlat moliyaviy nazorati organlariga taqdim etilishi mumkin;

– idoraviy moliyaviy nazorat alohida idoralar doirasida amalga oshiriladi, lekin uning natijalari umumiy baholash va muvofiqlashtirish uchun davlat moliyaviy nazorati tizimiga ham berilishi mumkin;

– davlat moliyaviy nazorati davlatning barcha darajalari va bo'linmalari faoliyatini, shu jumladan, ichki va idoraviy moliyaviy nazoratni umumiy nazorat qilish va muvofiqlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu turdagi nazorat turlari va ularning o'zaro bog'liqligini o'rganish davlat sektorida moliyaviy intizom va mas'uliyat qay darajada ta'minlanayotganini, shuningdek, moliyaviy qonunchilikka rioya etish va budjet mablag'laridan samarali foydalanishga qanday erishilayotganini to'liqroq tushunish imkonini beradi.

Budjet jarayonini amalga oshirish murakkab bo'lganligi sababli budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini nazorat qilishni takomillashtirish zarurati yuzaga keldi. Natijada budjet tashkilotlarida davlat budjeti ijrosini nazorat qilishning turlaridan biri bo'lgan budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini tekshirish va tashkilotning faoliyatini doimiy ravishda nazorat qilish imkonini beradigan ichki audit xizmati joriy qilina boshlandi.

Moliyaviy nazorat va ichki audit moliyaviy boshqaruv tizimining bir qismidir. Ichki audit ichki auditor tomonidan amalga oshiriladigan, vazirlik, qo'mita va idoralar ichki nazorat tizimining sifati va samaradorligini muntazam ravishda kuzatib borish, baholash va uni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish orqali vazirlik, qo'mita va idoralar faoliyatini yaxshilashga qaratilgan mustaqil va obyektiv faoliyat sanaladi (Xamidova, 2020). Muallif o'z fikrini davom ettirarkan, budget tashkilotlarida ichki audit xizmati davlat moliyaviy nazorati hamda budget tashkilotlarining ichki nazorat tizimi bilan o'zaro uzviy bog'liqlikda faoliyat olib borishini hamda ushbu hamkorlik moliyaviy resurslarni boshqarish sifatini oshirish va shaffoflikni yaratish uchun xizmat qilishi lozim ekanligini ta'kidlaydi.

Mamlakatimizda ichki audit xizmati dastlab O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3231-sonli qarori asosida tashkil etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning 2022-yil 1-avgustdagi "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni

tasdiqlash haqida"gi 416-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomda ichki audit xizmatlari faoliyatini tartibga solish mexanizmi hamda 2023-yil 14-avgustdagi "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi 377-sonli qarori bilan Iqtisodiyot va moliya vazirligi vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholashi va ularning faoliyatini takomillashtirish choralarini ko'rib chiqishi belgilangan.

Ichki auditni amalga oshirish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, aksariyat budget muassasalari va tashkilotlarida ichki audit xizmati mavjud emasligi yoki yetarlicha rivojlanmaganligi aniqlangan huquqbuzarlik va kamchiliklar sonining doimiy ortib borishiga olib keladi va ularning salbiy oqibatlari nazorat qilinadigan obyektlar faoliyatining natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari ushbu holat budget mablag'larining asosiy boshqaruvchilari tomonidan moliyaviy boshqaruv sifatini yomonlashtiradi va taqdim etilgan davlat resurslaridan noqonuniy, maqsadsiz va samarasiz foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratadi.

Jumladan, maktabgacha va maktab ta'limi sohalarida o'tkazilgan ichki audit tadbirlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, sobiq xalq ta'limi vazirligining ichki audit xizmati tomonidan 2022-yil davomida jami 662 ta obyektida o'tkazilgan ichki audit tadbirlarining natijasida 87,4 mlrd. so'mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlanganining guvohi bo'lishimiz mumkin (1 jadval).

1-jadval

**Xalq talimi vazirligining ichki audit xizmati xodimlari tomonidan o'tkazilgan audit tadbirlari natijasida aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklar [14] (mlrd. so'mda)**

№	Aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklar	Yetkazilgan zarar
1.	Kamomad	0,894
2.	O'zlashtirilgan mablag'lar	12.3
3.	Yo'l qo'yilgan noqonuniy xarajatlar	53.2
4.	Ortiqcha rejalashtirilgan to'lovlar	5.7
5.	Samarasiz islatilgan mablag'lar	7.7
6.	Davlat xaridlari sohasida qonunbuzilishi holatlari	7.6
7.	<b>Jami:</b>	<b>87.4</b>
	Aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklarning budgetga tiklashga erishilgan qismi	23.0

*Manba:* O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Shu bilan birga, 2022-yilda xalq ta'limi tizimida ichki audit xizmatlari tomonidan olib borilgan profilaktik tadbirlar natijasida 852,9 mlrd. so'mlik budget mablag'laridan samarasiz foydalanishning oldi olinganligini ham alohida qayd etish lozim.

Jumladan, tizimdagi ichki audit xizmatlari tomonidan davlat xaridlari sohasida jami 353 ta holatda aniqlangan 7,6 mlrd. so'mlik moliyaviy xato va kamchiliklar quyidagicha:

- 195 ta holatda 1,13 mlrd. so'mlik davlat xaridlarini qonunchilik talablariga zid ravishda qismlarga bo'lish;

- 3 ta holatda 264,0 mln. so'mlik elektron yoki milliy do'konda, auksion savdolarida belgilangan tartibni buzish;

- 6 ta holatda 872,9 mln. so'mlik tanlov o'tkazish qoidalarini buzish;

- 5 ta holatda 1,3 mlrd. so'mlik qonunga zid ravishda to'g'ridan to'g'ri shartnomalar imzolash;

- 4 ta holatda 367,4 mln. so'mlik xaridlar to'g'risidagi ma'lumotlarni portalga joylashtirmaslik;

- 140 ta holatda 3,5 mlrd. so'mlik boshqa xato va kamchiliklarga to'g'ri keladi.

Shunga qaramasdan, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimlari tomonidan birgina 2022-yilda amalga oshirilgan monitoring va o'rganish tadbirlari natijasida xalq ta'limi tizimidagi tashkilot va muassasalar tomonidan amalga oshirilgan 7 ta davlat xaridida 57,7 mlrd. so'mlik qonunbuzilishlarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi.

Sobiq Maktabgacha ta'lim vazirligining ichki audit xizmati xodimlari tomonidan 2022-yil davomida jami 1143 ta obyektida o'tkazilgan ichki audit tadbirlari natijasida 25,4 mlrd. so'mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlangan (2-jadval).

2-jadval

**Maktabgacha ta'lim vazirligining ichki audit xizmati xodimlari tomonidan o'tkazilgan audit tadbirlari natijasida aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklar [14] (mlrd. so'mda)**

№	Aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklar	Yetkazilgan zarar
1.	Kamomad	2.1
2.	O'zlashtirilgan mablag'lar	2.0
3.	Yo'l qo'yilgan noqonuniy xarajatlar	17.4
4.	Davlat xaridlari sohasida qonunbuzilishi holatlari	3.9
5.	<b>Jami</b>	<b>25.4</b>
	Aniqlanganga moliyaviy xato va kamchiliklarning budgetga tiklashga erishilgan qismi	10.2

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ma'lumotlari asosida tuzildi.*

2022-yilda maktabgacha ta'lim tizimida ichki audit xizmatlari tomonidan olib borilgan profilaktik tadbirlar natijasida 24,5 mlrd. so'mlik budget mablag'laridan samarasiz foydalanishning oldi olingan. Jumladan, davlat xaridlari sohasida jami 80 ta holatda 3,9 mlrd. so'mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlangan bo'lib, shundan:

- 17 ta holatda 795,2 mln. so'mlik xarid tartib-taomilini noto'g'ri tanlash;
- 6 ta holatda 258,8 mln. so'mlik davlat xaridlarini qonunchilik talablariga zid ravishda qismlarga bo'lish;
- 4 ta holatda 236,6 mln. so'mlik mahsulotlarni yuqori narxlarda xarid qilish;
- 11 ta holatda 608,3 mln. so'mlik elektron yoki milliy do'konda, auksion savdolarida belgilangan tartibni buzish;
- 3 ta holatda 186,8 mln. so'mlik tanlov o'tkazish qoidalarini buzish;
- 1 ta holatda 23,1 mln. so'mlik qonunga zid ravishda to'g'ridan to'g'ri shartnomalar imzolash;
- 6 ta holatda 256,8 mln. so'mlik xaridlarda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzish;
- 32 ta holatda 1,6 mlrd. so'mlik boshqa xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlangan va oldi olingan.

Ichki audit xizmati xodimlari tomonidan bir qator moliyaviy xato va kamchiliklarning oldi olinganiga qaramasdan, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan 2022-yilda amalga oshirilgan monitoring tadbirlari natijasida maktabgacha ta'lim tizimidagi tashkilot va muassasalar tomonidan amalga oshirilgan 11 ta davlat xaridida 6,9 mlrd. so'mlik qonunbuzilishlariga yo'l qo'yilganligi aniqlangan. Ushbu holatlar yuzasidan tuzilgan xarid komissiyasining bayonnomalari va shartnomalar agentlik taqdimnomalariga asosan bekor qilingan.

Yuqoridagi tahlillardan shunday xulosa qilish mumkinki, Xalq ta'limi va Maktabgacha ta'lim vazirligining ichki audit xizmatlari tomonidan bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilganligiga qaramasdan, ushbu tizimdan kutilgan natijaga erishib bo'lmayotgani hamda sohada yuz berayotgan moliyaviy qonunbuzarliklarning oldini olishda yetarlicha samara bermayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Bu esa ichki audit xizmatlari faoliyatida hanuzgacha bir qator kamchiliklar mavjudligidan dalolat bermoqda. Xususan, ichki audit xizmatlari faoliyatining to'liq mustaqil emasligi, ichki audit xizmati xodimlarining malakasi yetarli emasligi, auditorlar malakasini oshirishning aniq tartibi ishlab chiqilmaganligi, ularning faoliyatini nazorat qilishning aniq mexanizmlari mavjud emasligini qayd etishimiz mumkin. Bundan tashqari ichki audit xizmati faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar vazirlik va viloyat hokimliklarining rasmiy veb-saytlarida keng tarqalmagani, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan jamoatchilikka ochiq hisobotlar taqdim etilmatyogonligi shular sirasidandir.

**Xulosa va tavsiyalar.** Xulosa o'rnida aytish joizki, ichki audit xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish yo'llarini tadqiq etish, davlat xaridlarini amalga oshirishda o'rnatilgan me'yorlarga rioya qilinishini ta'minlash, budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shuningdek, nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha aniqlangan moliyaviy xato va huquqbuzarliklar, aniqlangan kamchiliklar va ularning bartaraf etilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni nazoratni amalga oshiruvchi organ, tegishli vazirlik va hududiy boshqarmalar o'z rasmiy veb-saytlarida jamoatchilikka yoritib borishi kerak.

**Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xamidova Z.U. (2020) Budjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish. // Iqtisod va moliya. 3(135). 78-84 b.
2. Аль-Садуни З.Ф.К. (2023). Организационные основы построения системы внутреннего контроля государственного учреждения. Деловой вестник предпринимателя, (1 (11)). С. 4-7.
3. Иванникова О.И. (2021) Организация службы внутреннего аудита: суть и сфера деятельности службы внутреннего аудита. // Материалы I Региональной межвузовской научно-практ. конф. проводимой в рамках празднования 55-летия Липецкого филиала Финуниверситета под общ. ред. Т.Д.Стрельниковой, О.Ю.Смысловой. – Липецк. С. 170-174.
4. Кожушко С.В. (2022) Правовое регулирование внутреннего бюджетного контроля и аудита в условиях цифровизации. Современная научная мысль, (2). С. 151-155.
5. Колесник А.Л. Организация и методика проведения внутреннего аудита распорядителями средств федерального бюджета. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – М., 2018. – 28 с.
6. Кутырев Ю.А. (2017). Дискуссионные вопросы сущности и видов финансового контроля. Управление экономическими системами: электронный научный журнал, (2 (96)). С. 7.
7. Кучеров И.И., Поветкина Н.А., Абрамова Н.Е. (2016) Контроль в финансово-бюджетной сфере. Научно-практическое пособие. – М.: ИЗУСП, КОНТРАКТ, 2016. – 320 с.
8. Родионова М.В., Шлейников В.И. (2002) Финансовый контроль. Учебник. – М.: ИД ФБК-ПРЕСС. – 320 с.
9. Романовский М.В., Врублевская О.В. (2001) Задачи, формы и методы финансового контроля. / Финансы, денежное обращение и кредит. Учебник. 2001. – 543 с.
10. Суванкулов А.Р. (2023). Развитие службы внутреннего аудита государственного сектора Узбекистана. Россия: тенденции и перспективы развития, (18-2). С. 125-131.
11. Тюрина М.В., Братко И.В. (2023) Оценка бюджетных рисков в процессе осуществления внутреннего финансового аудита в государственных учреждениях. // Инновационная экономика: информация, аналитика, прогнозы. № 1. С. 152-157.
12. Фадейкина Н.В., Воронов В.А. (2002) Финансовый контроль в сфере государственного сектора экономики. – Новосибирск: СИФБД. С. 11.
13. Фан Т.Т.К. (2020) Факторы, влияющие на эффективность внутреннего аудита. Обзор российских исследований. // Актуальные вопросы современной экономики. № 1. С. 586-595.
14. <https://anticorruption.uz/>



**ЖОРИЙ АКТИВЛАР ТЎҒРИСИДАГИ МАЪЛУМОТЛАРНИНГ  
ИШОНЧЛИГИ ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ  
ТЕКШИРИШ МАСАЛАЛАРИ**

 [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss5/a15](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/a15)

**Мавлянова Дилобар Махкамовна -**  
Тошкент давлат иқтисодиёт университети  
доценти

**Аннотация.** корхонанинг молиявий ҳолати унинг жорий активлари ҳолатига қараб баҳоланади: уларнинг ҳажми ва улардаги ўз маблағларининг улуши; ривожланиш динамикаси ва тузилиши бўйича. Компаниянинг молиявий ҳолатининг барқарорлиги кўп жиҳатдан молиявий ресурсларни активларга инвестициялашнинг мақсадга мувофиқлиги ва тўғрилигига боғлиқ. Номутаносибликлар муомаладаги нақд пулнинг етишмаслигига ёки ортиқча бўлишига олиб келади ва инвентаризация ҳаракатига, моддий ресурслардан фойдаланиш самарадорлигига салбий таъсир қилади. Жорий активларни имобилизация қилиш, уларнинг захиралари ва харажатлари корхонанинг Реал еҳтиёжига нисбатан номутаносиб равишда катта бўлиши, ҳар доим имобилизация қилинган суммаларни бошқа қарз ёки қарз маблағлари билан алмаштириш, жарималар, жарималар, жарималар тўлаш орқали корхона учун молиявий йўқотишлар билан бирга келади. йўқолган фойда ва бошқалар орқали. Шу муносабат билан жорий активлардан фойдаланишнинг ишончлилиги ва самарадорлиги аудитининг долзарблиги шубҳасиздир.

**Калит сўзлар:** ишонччилик аудити, самарадорлик аудити, жорий активлардан фойдаланиш самарадорлиги, моддий активларни тақдим этиш жараёнининг аудити, жорий активларнинг ички аудити босқичлари, ички audit ҳисоботи.